

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI

XOLMO‘MINOV FERUZ ZARIF O‘G‘LI

**INDONEZIYADA ISLOM DINI TARQALISHIDA SAMARQANDLIK
OLIMLARNING O‘RNI**

24.00.01 – Islom tarixi va manbashunosligi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

UDK: 28.091.594.

X-73

**Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Content of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
on historical sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по историческим наукам**

Xolmo'minov Feruz Zarif o'g'li

Indoneziyada islom dini tarqalishida samarqandlik olimlarning o'rni.....3

Kholmuminov Feruz Zarif o'g'li

The role of Samarkand scholars in the spread of Islam in Indonesia.....23

Холмуминов Феруз Зариф угли

Роль самаркандских ученых в распространении ислама в Индонезии.....43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

List of published works

Список опубликованных работ.....48

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI

XOLMO‘MINOV FERUZ ZARIF O‘G‘LI

**INDONEZIYADA ISLOM DINI TARQALISHIDA SAMARQANDLIK
OLIMLARNING O‘RNI**

24.00.01 – Islom tarixi va manbashunosligi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fil 1788 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya referati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.iiu.uz) hamda «ZiyoNET» Axborot ta'lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Islomov Zohidjon Maxmudovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nizomiddinov Najmiddin G'ulomovich
filologiya fanlari doktori, professor

Zohidov Qobiljon Toirjonovich
tarix fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar berish DSC.35/30.12.2019.Isl/T/F.57.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «__» iyun soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100011, Toshkent shahri, A.Qodiriy ko'chasi 11-uy, Tel: (99871) 2440056, Faks: (99871) 2440056, e-mail: info@iiu.uz.)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston xalqaro islom akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 127 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100011, Toshkent shahri, A.Qodiriy ko'chasi 11-uy. Tel: (99871) 2440056, Faks: (99871) 2440056, e-mail: info@iiu.uz.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «__» may kuni tarqatildi.
(2023-yil «5» maydagi № 3-raqamli reyestr bayonnomasi).

D.R.Maxsudov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori (DSc), professor

S.A.Rustamiy

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

N.A.Muhamedov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqotning dolzarbligi va zarurati. Jahonda islom dinining yoyilishida Movarounnahr (ما وراء النهر) hududidan yetishib chiqqan ulamolar, tariqat (طريقة) pirlari ham o‘zining munosib o‘rniga ega. Dunyo musulmonlarining 13 foizi (240 milliondan ortiq) istiqomat qiluvchi Indoneziyaga islom dini VII asrning ikkinchi yarmidayoq kirib kelgan bo‘lsa-da, uning mahalliy aholi hayotida ustun mavqeni egallashi XIV-XV asrlardagi tasavvuf tariqatlari vakillari faoliyati bilan bog‘liqdir. Ushbu jarayonda Jumadil Kubro (vaf. 1465-y.), Ibrohim Samarqandiy (vaf. 1419-y.) va Mavlono Ishoq (vaf. 1463-y.) kabi samarqandlik mutasavviflarning ham o‘ziga xos o‘rni mavjud. Indonez arxipelagida islom dinining tinch yo‘l bilan yoyilgani hamda mahalliy aholi bilan hozirgacha diniy nizolarning kuzatilmalik jihatlari ushbu olimlar faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashda dolzarb ahamiyatga ega.

Dunyodagi ilmiy tadqiqot markazlarida Indoneziyaga islomning kirib kelishi, rivojlanishi, mintaqa aholisining asosiy diniy e‘tiqodiga aylanishining tarixiy jarayonlarini o‘rganish va mazmun-mohiyatini ochib berish bo‘yicha tizimli tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunday tadqiqotlarning mantiqiy davomi sifatida mazkur arxipelagga islom dini kirib kelishining tarixiy bosqichlarini o‘rganish (تاريخ الإسلام), Indoneziyadagi tasavvuf tariqatlari tarixi (تاريخ الطرق الصوفية), ularning XIV-XV asrlarda mintaqada islom dini tarqalishidagi o‘rni, samarqandlik targ‘ibotchilar tomonidan asos solingan “Valiy songo” (Wali Sanga – “To‘qqiz valiy”) avliyolar silsilasi vakillarining Janubi-Sharqiy Osiyo dinlari va madaniyati rivojiga qo‘shgan hissasini o‘rganish zarurat kasb etmoqda.

Yangilanayotgan O‘zbekistonning jahon hamjamiyatida tutgan o‘rni, xususan, Indoneziya Respublikasi bilan munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida 1997-yilda Jakarta shahrida O‘zbekiston Respublikasining Elchixonasi ochildi, indoneziyalik sayyohlar uchun vizasiz tizim joriy qilinib, haj va umra ziyorati oldidan “UMRA+O‘zbekiston” dasturi yo‘lga qo‘yildi. Yurtimizdan yetishib chiqqan allomalarning Indoneziya tarixi va madaniyati taraqqiyotiga qo‘shgan hissasini o‘rganish maqsadida “Qadimgi Indoneziya tarixi, diniy e‘tiqodi va madaniyati”, “Indoneziya Respublikasi” hamda “Sharqiy Osiyoda islom dini tarqalishi va uning mintaqaviy xususiyatlari” nomli tadqiqotlar amalga oshirildi. Bu jarayonda mamlakatimiz fondlarida saqlanayotgan manbalardan foydalanish mavzuni yanada chuqurroq o‘rganish imkoniyatini bermoqda. Indoneziya tamadduniga o‘zining beqiyos hissasini qo‘shgan samarqandlik olimlarni kashf etish, ikki mamlakat o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarning yanada rivojlanishida ushbu tadqiqot katta ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-sonli “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 9-fevraldagi PF-6165-sonli “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 23-iyundagi PQ-3080-sonli “O‘zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-fevraldagi 100-sonli “Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Indoneziyadagi islom dini tarixi bilan aloqador masalalar G‘arb va Sharq olimlari tomonidan keng miqyosda o‘rganilmoqda. Ularni quyidagi to‘rt guruhga ajratish mumkin:

Birinchi guruhga Indoneziyadagi islom tarixi va tasavvuf tariqatlari borasida muhim ma’lumotlar beruvchi indonez tadqiqotchi hamda olimlaridan A.Azyumardiy, Hoji Abdul Malik Amrulloh (Hamka), R.Aizid, A.Abdulloh, A.Sunyoto, A.Kahin, B.Mustofa, U.Chandrasasmita, H.Jayadiningrat tadqiqotlarini keltirish mumkin. Xususan, Hamka Indoneziyaga islom dinining Arabiston yarim oroli orqali kirib kelishini asoslash maqsadida ikki mintaqa mazhablarining o‘xshashligini hamda hijriy birinchi asrdayoq Janubi-Sharqiy Osiyo va Arabiston yarim oroli o‘rtasida mavjud bo‘lgan o‘zaro savdo aloqalarini aytib o‘tgan. Xusayn Jayadiningrat esa Indoneziyada islom dini paydo bo‘lishida Eron ta’sirini tadqiq qilgan¹.

Ikkinchi guruhga sharq mamlakatlari olimlaridan T.Izutsu, J.Takakusu, A.Rizviy, N.Attas, Sh.Siddiqiyini kiritish mumkin². Ularning tadqiqotlaridan Janubiy-Sharqiy Osiyodagi islom tarixi va so‘fiylik tariqatlari borasida muhim ma’lumotlar olish mumkin.

Uchinchi guruhga G‘arb olimlaridan J.Koedes, V.Groenvelt, M.Riklefs, S.Hurgone, V.Arnold, G.Tibbets V.Braginskiy, I.Katkova kabi sharqshunos va

¹ Azyumardi A. Jaringan Ulama Timur Tengah dan Kepulauan Nusantara Abad XVII dan XVIII. – Bandung: Mizan, 1994; Hamka U. Dari Perbendaharaan Lama, Cetakan ketiga. – Jakarta: Pustaka Panjimas, 1996; Rizem Aizid. Sejarah Islam Nusantara: Dari Analisis Historis hingga Arkeologis tentang Penyebaran Islam di Nusantara. – Yogyakarta: Diva Press. 2016; Sunyoto Agus. Wali Songo, Rekonstruksi Sejarah yang Disingkirkan. – Jakarta: Transpustaka, 2011; Audrey Kahin. Historical Dictionary of Indonesia. – Rowman & Littlefield Publishers, 2015; Bisri Musthofa. Terjemah Tarikhul Auliya – Sejarah Para Wali. – Jombang: Penerbit Kalam, 2016; Tjandrasasmita Uka. Arkeologi Islam Nusantara. – Jakarta: Kepustakaan Populer Gramedia, 2009; Djayadiningrat H. “Islam di Indonesia” in Kenneth W. Morgan (eds.), Islam Jalan Lurus, terjemahan. – Jakarta: PT Dunia Pustaka Jaya, 1986.

² Toshihiko Izutsu. Relasi Tuhan dan Manusia: Pendekatan Semantik terhadap Al-Qur’an. – Yogyakarta: Tiara Wacana, 1997; Takakusu J. A Record of the Buddhist Religion as practiced in India and Malay Archipelago (671-695 A.D) by I-tsing. New Delhi, 1966; Rizvi A. A History of Sufism in India. – New Delhi: Munshiram Manoharlal. Vol. II. 1983; Syed Muhammad Naquib al-Attas. Preliminary Statement on General Theory of the Islamization of the Malay Indonesia Archipelago. Kuala Lumpur: Dewan Bahasa dan Pustaka, 1969; Sharon Siddique. Reading on Islam in Southeast Asia. Singapore Institut of Southeast Asian Studies: – Singapura, 1985.

islomshunoslarning amalga oshirgan tadqiqotlari³ni kiritish mumkin. Ularning ichida J.Koedesning “Janubi-Sharqiy Osiyoning hindlashgan davlatlari” (The Indianized States of Southeast Asia), V.Groyenveltning “Indoneziya va Malaya haqida tarixiy qaydlar” (Historical Notes on Indonesia and Malay) hamda M.Rikleflarning “Zamonaviy Indoneziya tarixi” (A History of Modern Indonesia) kabi Indoneziya arxipelagi borasida amalga oshirgan fundamental asarlari nafaqat mintaqa tarixi, balki Janubi-Sharqiy Osiyodagi islom tarixi to‘g‘risida muhim ma’lumotlar beradi. S.Hurgrone, T.Arnold va G.Tibbets tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar esa arxipelagga islom dinining kirib kelishi hamda mahalliy aholi turmush tarziga kirib borishining tarixiy jarayonlari borasida batafsil ma’lumotlar beradi. Mintaqaga islomning Hindiston orqali kirib kelganini ilgari suruvchi “Gujarot nazariyasi” yuqoridagi olimlar tomonidan qo‘llab-quvvatlangan⁴.

To‘rtinchi guruhga N.Nizomiddinov, O.Ernazarov, I.Nizomitdinov, K.Kattayev, T.Xatamov, S.Usarov, F.Usarov, B.Muxtarov, R.O‘razayev kabi o‘zbekistonlik olim va tadqiqotchilar tomonidan Janubiy hamda Sharqiy Osiyo mintaqasi borasida dinshunoslik va islom tarixi sohalarida amalga oshirilgan ishlarni kiritish mumkin. Xususan, N.Nizomiddinov va O.Ernazarov ishlarida janubiy hamda sharqiy Osiyo xalqlari diniy-falsafiy qarashlari, xususan, Indoneziyadagi islom tarixi batafsil yoritilgan⁵.

Ushbu izlanishlardan farqli ravishda mazkur dissertatsiyada Indoneziyada yashab o‘tgan samarqandlik olimlar faoliyatining ilmiy-amaliy ahamiyati alohida o‘rganilib, ularning arxipelagdagi islom dini rivojiga qo‘shgan hissasi hamda Samarqand bilan aloqalari ochib berilgan.

³ Coedès G., Walter F. Vella (ed.). The Indianized States of Southeast Asia. trans. Susan Brown Cowing. University of Hawaii Press, 1968; Groeneveldt W.P. Historical Notes on Indonesia & Malay Compiled from Chinese Sources. Jakarta: Bhatara, 1960; Ricklefs M.C. A History of Modern Indonesia since c.1200. – Stanford, California: Stanford University Press, 1993; Snouck Hurgronje. L’Arabie et Les Indes Neerlandaises. Revue de l’histoire des religions. Vol. 57, 1908; Arnold T.W. The Preaching of Islam: A History of Propagation of the Muslim Faith. – London: Constable & Company, 1913; Tibbets G.R. A Study of the Arabic Texts Containing Material on Southeast Asia. – Leiden: E.J.Brill, 1979; Брагинский В.И. История малайской литературы VII-XIX веков. – М.: Наука, 1983; Каткова И.Р. Памятник малайской литературы “Тухфат ар-рагибин фи байан хакикат ал-иман” как источник по истории суфизма на Малайском архипелаге. – СПб.: Изд-во СПбГУ, 2009.

⁴ Snouck Hurgronje. L’Arabie et Les Indes Neerlandaises // Revue de l’histoire des religions. Vol. 57, 1908; Andre Wink. Al Hind: The Making of the Indonesian Islamic World, 1991. – P. 85; Yana qarang: Drewes G.W.J. “Pemahaman Baru tentang Kedatangan Islam di Indonesia” dalam Ahmad Ibrahim, Sharon Shiddique, dan Yasmin Hussain (eds.), Islam di Asia Tenggara: Perspektif Sejarah, terjemahan. – Jakarta: LP3ES, 1989.

⁵ Nizomiddinov N. Qadimgi Indoneziya tarixi, diniy e‘tiqodi va madaniyati. T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2017; Sharqiy Osiyo diniy-falsafiy ta‘limotlari va islom. – T.: Fan va texnologiyalar, 2006; Qadimgi Xitoy tarixi, diniy e‘tiqodi va madaniyati. – T.: Fan va texnologiyalar, 2014; Ernazarov O. Sharqiy Osiyoda islom dini tarqalishi va uning mintaqaviy xususiyatlari. – T.: Lesson press, 2022; Низамутдинов И. Из истории Среднеазиатско-Индийских отношений. – Т.: Узбекистан, 1969; Kattayev K., Kattayeva G., Hazrati Ruhobod. Shayx Burhoniddin Sog‘arjiy va Mavlono Ibrohim as-Samarqandiy tarixi. – Samarqand: Fan bulog‘i nashriyoti, 2022; Usarov S.R. O‘zbekiston Respublikasining Osiyo-Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari bilan hamkorligi (Indoneziya, Malayziya va Singapur misolida, 1991-2019-yy.). Tar. fan. fal. dok. (PhD) ... dis. avtoref. – T.: Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2021; Usarov F.U. O‘zbekiston Respublikasi va janubi-sharqiy osiyo mamlakatlari o‘rtasida iqtisodiy va madaniy sohalaridagi xamkorlik (Malayziya davlati misolida: 1991-2005-yillar). T.f.n. dis... avtoref. – T.: O‘zbekiton Milliy Universiteti, 2010; Muxtarov B. Globallashuv jarayonida qodiriya tariqatining o‘ziga xos xususiyatlari. Monografiya. – T.: Bookmany print, 2022; O‘razayev R. Indoneziya Respublikasi. – T.: O‘zbekiston SSR Davlat nashriyoti, 1959.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston xalqaro islom akademiyasining 2019-2025-yillarga mo'ljallangan ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Islomshunoslik sohasini takomillashtirish chora-tadbirlari dasturi" bandi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Indoneziyada islom dinining tarqalish jarayonida samarqandlik ulamolar faoliyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Indoneziyadagi islom dini tarixini o'rganishning manbaviy asoslarini aniqlash va tasniflash;

mintaqadagi islom tarixi va tarqalishiga doir zamonaviy tadqiqotlarni tahlil qilish hamda olimlar tomonidan ilgari surilgan ilmiy qarashlarni qiyoslash;

Janubi-Sharqiy Osiyo xalqlari va arablar o'rtasidagi ilk aloqalar tarixini ochib berish;

Indoneziya jamiyatiga islom dini kirib borishining tarixiy jarayonlarini ko'rsatish;

kubraviylik va naqshbandiylik tariqatlarining mintaqada islom dini rivojidadagi hissasini ochib berish;

"Valiy songo" avliyolar silsilasining Indoneziya diniy-ma'rifiy hayotidagi o'rnini aniqlash;

arxipelagda faoliyat yuritgan samarqandlik olimlar shaxsiyati va faoliyatini ochib berish;

Ibrohim Samarqandiy nasabnomasining germenevtik tahlilini amalga oshirish;

Indoneziyada islom tarqalishidagi Ibrohim Samarqandiy targ'ibotchilik faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish hamda ulardan unumli foydalanish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida Indoneziyaga islom dini kirib kelishi va tarqalishining tarixiy jarayonlari belgilangan.

Tadqiqotning predmetini Indoneziyaga islom dini tarqalishida samarqandlik olimlarning o'rnini tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada kompleks yondashuv, ilmiy bilishning dialektik, tarixiylik, mantiqiylik, analiz, sintez, germenevtik va qiyosiy tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Indoneziyaga islomning Gujarat, Makka, Xitoy va Eron orqali kirib kelgani to'g'risidagi yondashuvlar orasida "Makka nazariyasi"ning (النظرية المكية) tarixiy voqelikka hamohangligi qadimiy Barus shahrida (مدينة باروس) VII asr o'rtalaridayoq arab-musulmon qishlog'ining bo'lgani hamda u yerdan topilgan arab tilida "Shayx Rukuniddin 672-yilda vafot etgan" va "Shayx Usuluddin" bitiklari yozilgan qabr toshlariga binoan dalillangan;

XIV-XV asrlarda Indoneziyada islom tarqalishi Jumadil Kubro, Ibrohim Samarqandiy, Mavlono Ishaq ilgari surgan pir-murid, insoniy poklik, latoif

g'oyalari ta'sirida kubroviylik tariqati rivojlanib, "Valiy songo" (Wali Sanga) avliyolar silsilasi shakllanishi hamda ular asos solgan diniy maktabda yetishib chiqqan Ali Rahmatulloh (1401-1481), Sunan Bonang (1465-1525), Sunan Qudus (vaf. 1550) singari izdoshlari faoliyati natijasi ekani asoslangan;

Indoneziyada faoliyat yuritgan Jumadil Kubro, Ibrohim Samarqandiy va Mavloni Ishaqning samarqandlik Burhoniddin Sog'arjiy avlodlari ekani uning Xitoydagi faoliyati hamda "Yava o'lkasi tarixi" (Babad Tanah Jawi) asaridagi Sunan Kaliyaga (1450-1513) nasabnomasida Jumadil Kubrodan oldin Sog'arjiy nomining keltirilishiga asosan isbotlangan;

Ibrohim Samarqandiy o'z targ'ibotida "namoz" (الصلاة), "jannat" (الجنة) kabi atamalar o'rniga yava tilidagi "sembahyang", "swarga" singari muqobillarini qo'llashi, masjidlar binosini mahalliy ibodatxonalar kabi uchburchak piramida ko'rinishida qurdirishdek o'ziga xos uslublari Champa, Yava va Sumatra aholisi orasida islomni oson tushunishga sabab bo'lgani aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Indoneziyaga islom dini kirib kelishi va tarqalishining 650-yildan hozirgacha bo'lgan tarixiy bosqichlari 650-1100 hamda 1101-1500-yillar va 1501-yildan to bugungi kunga qadar bo'lgan uch davrga ajratilib, birlamchi manbalar hamda G'arb va Sharq tadqiqotchilari asarlarini qiyosiy solishtirish orqali ochib berilgan;

tadqiqotga oid mahalliy arxeologik topilmalar va I-Sing, Marko Polo, Ibn Battuta kabi sayyohlar tomonidan qoldirilgan xorijiy manbalar o'rganilib, Sumatraning shimoliy qirg'oqlarida joylashgan Barus shahri mintaqadagi dastlabki arablar qishlog'i va Indoneziyadagi islom beshigi bo'lgani hamda islom Barus orqali arxipelagning boshqa hududlariga tarqalgani aniqlangan;

"Banten tarixi", "Hasaniddin hikoyalari", "Halvatiya va naqshbandiya tariqati" hamda "Shattariya silsilasi" kabi manbalar tadqiqi natijasida Indoneziyaga XII asrda kubraviylik, XVI asrda esa naqshbandiylikning kirib kelgani va mintaqa aholisining islom dinini qabul qilishida bu tariqat vakillari muhim o'rin tutgani dalillangan;

samarqandlik olimlar avlodlarining Indoneziya madaniyati va san'ati rivojidagi o'rnini Sunan Qudus yaratgan "Soyalar o'yini" (Wayang golek) qo'g'irchoq teatri, Sunan Bonangning "Qalb shifosi" (Tombo ati) an'anaviy yava qo'shig'i, Sunan Kaliyaganing "Qo'sh va shudgor falsafasi" (Filsafat bajak dan cangkul) asarlari orqali ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi metodologik bazaning yaratilgani, Sharq va G'arb islomshunoslik maktablarida shakllangan qator ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgani, ilmiy xulosalarni ilgari surishda Indoneziyada islom dini tarqalishida samarqandlik olimlarning hayot faoliyatini ochib beruvchi "Hikayat Hasanuddin", "Sajarah Banten", "Babad Chirebon", "Babad tanax Javiy" kabi mahalliy manbalar va Abu Xafs Nasafiyning "Al-Qand fi tarixi ulamai Samarqand" asari hamda mahalliy arxeologik qazilma ishlari natijalari kabi birlamchi manbalarga tayanilgani, dalillar vositasida

asoslangani bilan tasdiqlanadi. Shuningdek, tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi ilmiy nashrlarda chop etilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda bayon etilgan islom dinining Indoneziyaga kirib kelishi va tarqalishining tarixiy jarayonlarida samarqandlik olimlarning muhim o'rin tutgani borasidagi ilmiy-nazariy xulosalar sohaga oid kelgusi ilmiy tadqiqot hamda izlanishlarga asos bo'lishi mumkinligida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy va o'rta maxsus diniy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan "Islom tarixi va manbashunosligi", "Tasavvufga kirish", "Tasavvuf", "Movarounnahr allomalari", "Janubi-Sharqiy Osiyo diniy falsafiy ta'limoti" kabi fanlar mazmunini yangi nazariy ishlanmalar bilan boyitishda, sohaga oid fakultativ darslar, seminar mashg'ulotlari va maxsus kurslarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Indoneziyada islom dini tarqalishida samarqandlik olimlarning o'rni bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

Indoneziyaga islom dinining Gujarot, Makka, Xitoy va Eron orqali kirib kelgani to'g'risidagi yondashuvlar orasida "Makka nazariyasi"ning (النظرية المكية) tarixiy voqelikka hamohangligi qadimiy Barus shahrida VII asr o'rtalaridayoq arab-musulmon qishlog'ining bo'lgani hamda u yerdan topilgan arab tilida "Shayx Rukuniddin 672-yilda vafot etgan" va "Shayx Usuluddin" bitiklari yozilgan qabr toshlariga binoan dalillangani to'g'risidagi ilmiy xulosalari Din ishlari bo'yicha qo'mita buyurtmasi asosida Imom Moturidiy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi tomonidan tayyorlangan "Xorijiy mamlakatlardagi diniy vaziyat tahlili" deb nomlangan kitob mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasining 2023-yil 10-fevraldagi 02-03/816-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, bu Indoneziyaga islom dini kirib kelishi va tarqalishi borasidagi tushunchalarni hamda mintaqa diniy madaniyati rivojidadagi xorijlik olimlar ahamiyatini ko'rsatishga oid tahlillarni amalga oshirish uchun xizmat qilgan;

XIV-XV asrlarda Indoneziyada islom tarqalishi Jumadil Kubro, Ibrohim Samarqandiy, Mavlono Ishoq ilgari surgan pir-murid, insoniy poklik, latoif g'oyalari ta'sirida kubroviylik tariqati rivojlanib, "Valiy songo" (Wali Sanga) avliyolar silsilasi shakllanishi hamda ular asos solgan diniy maktabda yetishib chiqqan Ali Rahmatulloh (1401-181), Sunan Bonang (1465-1525), Sunan Qudus (vaf. 1550) singari izdoshlari faoliyati natijasi ekani asoslangani to'g'risidagi ilmiy xulosalaridan O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi tomonidan tayyorlangan "Islom sivilizatsiyasi" qomusiy lug'atini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining 2023-yil 07-fevraldagi 05-13/16-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, bu jahon ilm-fani va islom madaniyati tamadduniga hissa qo'shgan allomalarimiz ilgari surgan g'oyalarning jamiyat hayotini yuksalishiga qaratilgan insonparvarlik, ma'rifatparvarlik tushunchalarining rivojlanishiga yordam bergan;

Indoneziyada faoliyat yuritgan Jumadil Kubro, Ibrohim Samarqandiy va Mavlono Ishoqning samarqandlik Burhoniddin Sogʻarjiy avlodlari ekani uning Xitoydagi faoliyati hamda “Yava oʻlkasi tarixi” (Babad Tanah Jawi) asaridagi Sunan Kaliyaga (1450-1513) nasabnomasida Jumadil Kubrodan oldin Sogʻarjiy nomining keltirilishiga asosan isbotlanganiga doir xulosalar Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi buyurtmasi asosida tayyorlangan “Oʻrta asr sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy-falsafiy merosi” nomli kitobi mazmuniga singdirilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2023-yil 07-fevraldagi 02/58-sonli maʼlumotnomasi). Natijada, kelib chiqishi samarqandlik boʻlgan allomalarning Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasida islom dini va madaniyati taraqqiyotiga qoʻshgan hissasini ochib berishga xizmat qilgan;

Ibrohim Samarqandiy oʻz targʻibotida “namoz” (الصلاة), “jannat” (الجنة) kabi atamalar oʻrniga yava tilidagi “sembahyang”, “swarga” singari muqobillarini qoʻllashi, masjidlar binosini mahalliy ibodatxonalar kabi uchburchak piramida koʻrinishida qurdirishdek oʻziga xos uslublari Champa, Yava va Sumatra aholisi orasida islomni oson tushunishga sabab boʻlgani aniqlangani toʻgʻrisidagi ilmiy xulosalari Oʻzbekiston musulmonlar idorasi tasarrufidagi Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan buyurtma asosida tayyorlangan “Buyuk yurt allomalari” nomli kitob mazmuniga singdirilgan (Oʻzbekiston musulmonlari idorasining tasarrufidagi Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2023-yil 9-fevraldagi 01-07/29-sonli maʼlumotnomasi). Natijada, islom dinining milliy qadriyat va anʼanalar rivojidadagi oʻrni kengroq ochib berilib, dinlararo bagʻrikenglik gʻoyalarini yanada kengroq yoyishga asos boʻlgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy anjuman va konferensiyalarda, shu jumladan, 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi boʻyicha jami 7 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, xorijiy jurnallarda 2 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar roʻyxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 146 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, oʻrganish obyekti va predmeti aniqlangan. Tadqiqotning fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilib, ishning ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda ularning nazariy va amaliy ahamiyati

ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprotatsiyasi, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Indoneziyaga islom dini kirib kelishini tadqiq etishning nazariy asoslari”** deb atalgan. Uning *“Indoneziyadagi islom tarixini o'rganishning manbaviy asoslari”* deb nomlangan birinchi bandida Indoneziyada islom tarixi borasida ma'lumot beruvchi tarixiy manbalar aniqlanib, tasniflangan hamda geografik jihatdan besh guruhga ajratilgan. Birinchisi, mintaqada yaratilgan *“Pasay hukmdorlari qissasi”* (Hikayat Raja Pasai)⁶, *“Malay tarixi”* (Sejarah Melayu)⁷, *“Yava o'lkasi tarixi”* (Babad Tanah Javi), *“Banten tarixi”* (Sejarah Banten) kabi yozma va arxeologik topilmalar.

Ikkinchisi, geografik jihatdan yaqin bo'lgan Xitoyga oid 635-yilda Yao Silyan tomonidan yozilgan *“Lyan kitobi”* (Lyan-shu), xitoylik rohib I-Singning (635-713) *“Hindiston va Malay arxipelagida amalda bo'lgan buddaviylik dini qaydlari”* (Nanhai Jigui Neifa Zhuan), xitoylik musulmon sayyoh Ma Xuanning *“Okean qirg'oqlarini umumiy o'rganish”* (Yng-yai sheng-lan) asarlari⁸.

Uchinchisi, qadimdan o'zaro aloqalarni yo'lga qo'ygan va arxipelagga islom kirib kelishi hamda tarqalishiga turtki bo'lgan Hindistonga oid manbalardir. Hind manbalari ichida arxipelagga oid eng qadimgi ma'lumotlar *“Ramayana”* hamda *“Jataka”* xalq eposlarida uchraydi. *“Ramayana”*da Yava oltin va kumush oroli ekanligi, *“Jataka”*da Hindiston va Sumatra o'rtasidagi munosabatlar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

To'rtinchisi, arab va musulmon o'lkalaridagi arxipelagga oid ma'lumot beruvchi Beruniy, Abu Dulaf, Mas'udiy, Ibn Battuta, Buzurg Romahurmuziy, Muhammad Idrisiy, Yaqut Hamaviy, Seydi Ali Chalabiyga tegishli manbalar. Bular ichida Ibn Battutaning *“Sayohatnoma”* asari XIV asrlardagi arxipelag tarixi, tashqi aloqalari va mahalliy xususiyatlari borasida ma'lumot beruvchi noyob manbadir. Beruniy *“Hindiston”* asarida hindlar Zabaj (Sumatra) orolini *“Suvarnadib”* (Oltin orol) deb nomlashini keltirgan⁹. Musulmon sayyohlari qoldirgan ma'lumotlar joylar, mahalliy xalqlar, urf-odatlar, yo'nalishlar va mahsulotlar haqida xabar beradi.

Beshinchisi, arxipelag borasidagi qaydlar uchraydigan g'arb sayyoh va savdogarlari asarlari. Ulardan biri lissabonlik Tome Piresning (1465-1540) *“Suma Oriental”*¹⁰ asaridir. Pires Yava va Sumatra orollariga sayohat qilib, Indoneziya

⁶ Hill A.H. (ed. & trans.). Hikayat Raja-raja Pasai. JMBRAS vol. 33, no. 2 (1960). – P. 215.

⁷ Brown C.C. (transl.). Sejarah Melayu or Malay annals. – Kuala Lumpur: Oxford University Press, 1983. – 408 p.

⁸ Chaussende Damien. "Liang shu 梁書". Early Medieval Chinese Texts: A Bibliographical Guide. Berkeley CA: University of California. 2015. – P. 167-170; Takakusu J. A Record of the Buddhist Religion as practiced in India and Malay Archipelago (671-695 A.D) by I-tsing. – New Delhi, 1966. – 240 p.; Dcutt S., Buddhist Monks and Monasteries of India, with the translation of passages from Yijing's book: Buddhist Pilgrim Monks of Tang Dynasty as an appendix. – London, 1952. – P. 311; Ma Huan. Ying-yai sheng-lan: 'The overall survey of the ocean's shores' (1433). Ed. and trans. J.V.G. Mills. – Cambridge University Press, 1970.

⁹ Beruniy. Tanlangan asarlar. Toshkent: Fan, 1965. – J. 2. – 536 b.

¹⁰ Cortesão Armando (ed. & trans.). The Suma Oriental of Tomé Pires and the book of Francisco Rodrigues. 2 vols. – London: Hakluyt Society, 1944.

haqida qimmatli ma'lumotlar to'plagan. U Ibrohim Samarqandiy to'g'risida yozib qoldirgan yevropalik kam sonli mualliflardan sanaladi.

Birinchi bobning ikkinchi bandi "*Mintaqadagi islom tarixi va tarqalishiga doir zamonaviy tadqiqotlar tahlili*" deb nomlanib, unda Indoneziyaga islom kirib kelishi borasida olimlar tomonidan ilgari surilgan qarashlar qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqotchilar Indoneziyaga islom kirib kelishi va tarqalishi yo'nalishiga ko'ra, "Gujarot nazariyasi", "Xitoy nazariyasi", "Makka nazariyasi" va "Eron nazariyasi" kabi qarashlarni ilgari surgan. "Gujarot nazariyasi"ga ko'ra, arxipelagga islom Gujarot orqali kirib kelgan¹¹. Nazariya Yava oroli va Gujarotdan topilgan qabr toshlarining o'xshashligi hamda Marko Polo, Ibn Battuta asarlaridagi qaydlarga asoslanadi.

"Xitoy nazariyasi"ga ko'ra, Tan sulolasi (618-960) yilnomalarida¹² Kanton hududida, Chjan-chjao, Quanchjou va janubiy Xitoy qirg'oqlarida musulmonlar istiqomat qiluvchi bir qancha markazlar hamda Sumatrada Arabistondan kelgan musulmonlar jamoasi bo'lgani aytilgan. Xitoylik I-Sing 671-yilda Xitoydan, Shrivijaya qirolligi markazi Palembang shahriga, Shriboga portidan Musi daryosi orqali musulmon kishiga tegishli qayiqda yo'lga chiqqani haqida yozgan¹³. Mazkur qarash bir tomonlama yondashuv asosida o'rganilgan. Chunki islomning ilk davrlarida musulmon savdogarlar Xitoyga Indoneziya dengiz yo'llari orqali borgan.

"Makka nazariyasi"ga ko'ra, islom hijriy birinchi asrda Indoneziyaga Makka yoki Arabistondan arablar orqali kirib kelgan. Ingliz sharqshunosi V.Groyenevelt Xitoydan topilgan Tan sulolasi davriga oid manbada yozilgan "Ta-shih" atamasi arabcha so'z ekanini va G'arbiy Sumatra qirg'oqlarida istiqomat qilgan musulmon arablarga ishora qilishini aytgan¹⁴. Indonez olimi Hamka (1908-1981) bu qarashni asoslash uchun 651-yildan boshlab arxipelagga musulmonlar tashrif buyurganini keltiradi¹⁵. Bu VII asrda Sumatrada arablardan iborat musulmon jamoasi yashaganini izohlaydi.

"Eron nazariyasi" ko'ra, islom XII asrda arxipelagga hozirgi Eron hududlaridan fors savdogarlari orqali kirib kelgan. Bu indonez tili Bhasdagi kelib chiqishi forscha so'z va so'z birikmalariga asoslanadi¹⁶. Ammo XII asrda arxipelag islom bilan tanishib ulgurgan edi. Tillardagi o'zgarish esa keyingi davrlarda yuz bergan.

¹¹ Snouck Hurgronje, L'Arabie et Les Indes Neerlandaises. Revue de l'histoire des religions. Vol. 57, 1908. – P. 60-80; Wink Andre Al Hind: The Making of the Indonesian Islamic World. 1991. J. 1. – H. 85.

¹² Qarang: Sumanto Al Qurtuby. Arus Cina-Islam-Jawa: bongkar sejarah atas peranan Tionghoa dalam penyebaran agama Islam di Nusantara Abad XV & XVI. – Yogyakarta: Inspeal Press, 2005. – 311 p.

¹³ I-Tsing. A Record of the Buddhist Religion as Practiced in India and Malay Archipelago, terj. J. Takakusu. – Oxford: Clarendon Press, 1896. P. XI-XVI; Groeneveldt W.P. Historical Notes on Indonesia & Malay Compiled from Chinese Sources. – Jakarta: Bhatara, 1960.

¹⁴ Uka Tjandrasasmita. Arkelogi Islam Nusantara. – Jakarta: Kepustakaan Populer Gramedia (KPG), 2009. – P. 12.

¹⁵ Hamka. Sejarah Umat Islam. Djilid IV. – Bukit Tinggi: Menara, 1963.

¹⁶ Hoesein Djayadiningrat. "Islam di Indonesia" in Kenneth W.Morgan (eds.), Islam Jalan Lurus, terjemahan. – Jakarta: PT Dunia Pustaka Jaya, cet. Ketiga, 1986. – P. 64.

Birinchi bobning “Janubi-Sharqiy Osiyo va arablar o‘rtasidagi ilk aloqalar tarixi” deb atalgan uchinchi bandida arxipelagning arablar bilan o‘zaro munosabatlari tarixi, rivojlanish bosqichlari o‘rganilgan. Ingliz olimi J.Houraniy islomgacha Fors ko‘rfazi va Xitoy o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri dengiz yo‘li mavjudligi haqida dalillarni umumlashtirib, Tabariy va Balazuriydan iqtibos keltirgan holda al-Ubulloh (Apologus) Xitoy, Hindiston va boshqa mintaqalardan kelgan kemalar uchun asosiy bandargoh vazifasini bajarganini aytgan¹⁷. Arxipelagning IV-V asrlardagi savdo aloqalari borasida xabar beruvchi xitoylik rohib Fa-Hien Seylon o‘lkasi o‘sha davrda yirik savdo markazi bo‘lgani, shaharlarida hashamatli uylarga egalik qiluvchi sabaiy¹⁸ savdogarlari borligini aytgan¹⁹.

Usmon ibn Affon (644-656) davrida Xitoy hukmdorlari saroyiga Arabistondan musulmon elchilar kelgani to‘g‘risidagi qaydlar Tan sulolasi solnomalarida saqlanib qolgan. Musulmonlar VII asr oxirida Sumatrada vujudga kelgan Shrivijaya davlati savdo-iqtisodiy ishlarida muhim o‘rin tutgan. Milodiy 904-yildan – XII asr o‘rtalarigacha u yerdan Xitoy saroyiga arabcha ismli elchilar kelgan²⁰.

VIII asrga kelib arablar dengizchilik bilan keng miqyosda shug‘ullana boshlaydi va Xitoy bilan amalga oshiriluvchi dengiz savdosida ustunlikni qo‘lga kiritadi. Xitoyga olib boruvchi dengiz yo‘llari Malakka va Zond bo‘g‘ozlari orqali o‘tgan, arxipelagning g‘arbiy qismidagi bandargohlar tranzit punktlari bo‘lib xizmat qilgan. VII-XVII asrlar davomida Indoneziya va xorijiy mamlakatlar o‘rtasidagi munosabatlarda muhim o‘rin tutgan arxipelagdagi yirik savdo markazlaridan biri Shimoliy Sumatradagi Barus shahri edi. Bu shahar Indoneziyadagi birinchi arab – musulmon qishlog‘i bo‘lgan. 977-yili Barusning Pu-li (Abu Ali) ismli musulmon elchisi Xitoyga tashrif buyuradi²¹. Ingliz tarixchisi G.R.Tibbets qo‘lga kiritgan Xitoyga tegishli qadimgi manbada qayd etilishicha, 625-yildayoq g‘arbiy Sumatrada arablar qishlog‘i mavjud bo‘lgan²², keyinchalik u “Barus” nomini olgan.

Dissertatsiyaning **“Mintaqaga islom dini kirib kelishining tashqi omillari”** deb nomlangan ikkinchi bobining birinchi bandi *“Indoneziya jamiyatiga islom dini kirib borishining tarixiy jarayonlari”* deb atalib, unda islomning Indoneziyaga kirib kelishi va aholi turmush tarziga aylanishining tarixiy bosqichlari ochib berilgan.

¹⁷ Hourani G.F. Arab Seafaring: In the Indian Ocean in Ancient and Early Medieval Times. Princeton University Press, 1995. – P. 206.

¹⁸ Sabaiy – Sabiyar deb ham nomlangan. Janubiy Arabistonning qadimgi xalqi. Ular qadimgi janubiy arab tillaridan biri bo‘lgan sabaiy tilida gaplashgan. Yaman hududlarida Saba qirolligiga asos solgan.

¹⁹ Beale S. Travels of Fah-Hien and Sung-Yun Buddhist pilgrims: from China to India (400 A.D. and 518 A.D.). – London, 1869. – 422 p.

²⁰ Ricklefs M.C. A History of Modern Indonesia since c.1200. – Stanford University Press, 1993. – P. 30.

²¹ Qarang: Friedrich Hirth and Rockhill W.W. Chau-Ju-Kua: St. Petersburg: Printing Office of the Imperial Academy of Sciences, 1911. – P. 195.

²² Qarang: Tibbetts G. R. Arab Navigation in the Indian Ocean before the Portuguese, Royal Asiatic Society of Great Britain and Ireland. – London, 2004. – 658 p.; G.R. Tibbetts, Pre-Islamic Arabia and South-East Asia. JMBRAS 29, 3 (1956). – P. 182-208.

Indoneziyadagi islom tarixini 3 bosqichga ajratish mumkin: birinchisi, 650-1100-yillar, ikkinchisi, 1101-1500 yillar, uchinchi esa 1501-yildan to bugungi kungacha boʻlgan davrni qamrab oladi. Birinchi bosqichda islom dini arxipelagga turli maqsadda kelgan savdo kemalari, elchilar va sayyohlar orqali tanilgan. Gʻarbiy va Sharqiy Osiyo oʻrtasidagi savdo aloqalari islom paydo boʻlgandan soʻng yanada jadallashgan. Musulmonlar mahalliy aholiga oʻz urf-odatlarini va madaniyatini targʻib qilmagan, buning oʻrniga tavhid taʼlimoti va shariat qoidalaridan chetlashmagan holda mahalliy madaniyatni oʻzlashtirishga harakat qilgan.

Ikkinchi bosqichda islom aholi orasida tanilib ulgurgan edi. Bu jarayon Sumatradan boshlanib keyinchalik Yava, Malayya, Borneo, Mindanao, Sulavesi va Manila boʻylab davom etgan. Islomning ibodatdan koʻra ruhiyatga urgʻu bergan maʼnaviy taʼlimot sifatida taqdim etilishi uning aholi tomonidan qabul qilinishini tezlashtirgan. Sumatrada soʻfiylik tariqatlari kirib kelishi islom yoyilishini yangi bosqichga koʻtaradi. Pasay va Malakka islom ilmlari hamda tasavvuf markaziga aylangan. Arxipelag va islom dunyosi oʻrtasidagi savdo aloqalari kuchayishi mahalliy hukmdorlarning Hindiston hamda Gʻarbiy Osiyodagi musulmon mamlakatlar bilan yaqin aloqalar oʻrnatishga undaydi. 1451-yilda Majapahit hukmdori Raja Kertavijaya (1447-1451)²³ Ibrohim Samarqandiyning oʻgʻli Raden Rahmat rahnamoligida islomni qabul qiladi. XV asrga kelib islom mintaqada shunchaki ruhiyatga yoʻnalgan maʼnaviy taʼlimot boʻlib qolmasdan oʻzining shariati, aqidasi va fiqhi bilan toʻliq namoyon boʻla boshlaydi.

Uchinchi bosqich nafaqat mahalliy aholining dinni qabul qilishi, balki madaniyat va adabiyot sohasida ham islomning oʻrni yuksalishi bilan ajralib turadi. Soʻfiylar va musulmon ulamolarning taʼsiri natijasida malay tili oʻzgarishlarga uchraydi. Arabiy va forsiy soʻzlar tilni yanada boyitib, uning foydalanish qamrovini falsafa, ilohiyot, balogʻat va boshqa fanlar doirasida kengaytiradi hamda malay xalqlarini xalqaro musulmon birodarligiga integratsiyalashuviga yordam beradi. Bu bosqich arxipelagda yevropaliklarning paydo boʻlishi bilan ham ajralib turadi. Portugal va ispan bosqinlari islomni shimoliy orollar, Vyetnam va Hindi-Xitoyga tarqalishini toʻxtatadi.

Ikkinchi bobning ikkinchi bandi *“Kubraviylik va naqshbandiylik tariqatlarining mintaqada islom dini rivojidadagi hissasi”* deb nomlanib, unda Markaziy Osiyoda vujudga kelgan tariqatlarning oʻlka dini va madaniyati rivojiga koʻrsatgan taʼsiri ochib berilgan. Arxipelagga islom kirib kelgandan soʻng aholining uni qabul qilishida tariqatlar muhim oʻrin tutgan. Bular orasida kubraviylik va naqshbandiylik tariqatlarining ahamiyati mahalliy indonez hamda xorijiy tadqiqotchilari tomonidan alohida eʼtirof etiladi. Indoneziyada kubraviylik tariqati borasidagi eng qadimgi yozma qaydlar XVII asrning oʻrtalariga oiddir²⁴.

²³ Coedes G. The Indianized states of Southeast Asia. University of Hawaii Press, 1968. – P. 242.

²⁴ Martin van Bruinessen, Najmuddin al-Kubra, Jumadil Kubra and Jamaluddin al-Akbar; Traces of Kubrawiyya influence in early Indonesian Islam. Leiden. Bijdragen tot de Taal-, Land- en Volkenkunde, 1994. №: 2. – P. 314.

“Sajarah Banten” asarida keltirilgan avliyo Sunan Gunung Jatiy (vaf. 1568-y.) nasabnomasida uning ajdodi Jumadil Kubroning Najmiddin Kubroga aloqadorligi ko‘rsatiladi. Ushbu manbada Najmiddin Kubroning 27 nafar shogirdi nomlari ham keltiriladi²⁵. Ularning 11 nafari kubraviylik tariqatining taniqli shayxlaridir. “Hikayat Hasanuddin” asarida keltirilgan Najmiddin Kubro silsilasi, ba’zi arzimas xato va ikki yetishmayotgan ismni hisobga olmaganda, kubraviylikka oid tan olingan ikki asosiy silsiladan biri bilan aynan mos keladi.

Indoneziyadagi naqshbandiylik tarixini uch davrga ajratish mumkin. Birinchi davr XVI asr, ikkinchisi, XIX asr Gollandiya mustamlakasi davri, uchinchisi, mamlakat mustaqillikka erishgan XX asr o‘rtalaridan to bugungi kungacha bo‘lgan davrga to‘g‘ri keladi. Tariqatning dastlabki davri haqida ma’lumot beruvchi manbalardan biri makassarlik Shayx Yusuf (1626-1699) qoldirgan qaydlar bo‘lib, u Indoneziyaning birinchi mashhur naqshbandiylik vakili sifatida tilga olinadi.

“Sajarah Banten” va “Hikayat Hasanuddin”da Hasanuddinning 1662-1663-yillarda Makka hamda Madinaga borib, naqshbandiylikka oid zikr, vird va boshqa amaliyotlarni o‘zlashtirgani aytiladi²⁶. Mintaqadagi Mazkur tariqat tarixi borasida ma’lumot beruvchi “Halvatiya va naqshbandiya tariqati”²⁷ hamda “Shattariya silsilasi”²⁸ nomli qo‘lyozmalar mavjud. Mazkur manbalar tariqatning mintaqada o‘rta asrlardan buyon mavjudligini ko‘rsatadi. Avvaliga yakka-yakka shaxslar tomonidan mintaqaga kirib kelgan kubraviylik va naqshbandiylik uzoq vaqt davomida uyushgan tariqat sifatida faoliyat olib bormagan. Vaqt o‘tishi bilan tariqat amaliyotlari mahalliy urf-odat va an’analar bilan moslashib, aholi orasiga kirib borgan.

Ikkinchi bobning “*Valiy songo avliyolar silsilasining Indoneziya diniy-ma’rifiy hayotidagi o‘rni*” deb nomlangan uchinchi bandida silsilaning vujudga kelishi, mintaqa tarixi va madaniyati rivojiga qo‘shgan hissasi ochib berilgan. “Valiy songo” Indoneziyada islom va tasavvuf tariqatlarini keng miqyosda tarqatgan avliyolarga nisbatan qo‘llanilgan atama bo‘lib, “to‘qqiz valiy” ma’nosini ifodalaydi. Silsila asoschisi Ibrohim Samarqandiy bo‘lib, uning valiylari XIV-XVI asrlarda Vyetnamning janubiy mintaqalari, Yavaning shimoliy qirg‘oqlarida, Sharqiy Yavadagi Surabaya-Gresik-Lamongan, markaziy Yavadagi Demak-Qudus-Muriya va G‘arbiy Yavadagi Chirebon hududlarida faoliyat yuritgan.

Valiy songo vakillarining arxipelagda islomni tarqatishdagi muvaffaqiyatini ular qo‘llagan quyidagi yondashuvlarda ko‘rish mumkin:

birinchisi, oila va nikoh orqali da’vat qilish. Ibrohim Samarqandiy Champa malikasi, Mavlono Ishoq esa Balambang hukmdori qizi bilan turmush qurgan. Raden Rahmat mahalliy hukmron tabaqa vakili bo‘lgan musulmon shogirdlari bilan qarindoshlik rishtalarini bog‘lashni izdoshlari orasida an’anaga aylantirgan;

²⁵ Edel J. Hikajat Hasanoeddin. Meppel: Ten Brink. Akademisch Proefschrift Rijksuniversiteit te Utrecht, 1938. – P. 56.

²⁶ Djayadiningrat H. 1913, Critische beschouwing van de Sadjarah Banten, Haarlem: Enschede. 1913. – P. 80.

²⁷ Qo‘lyozma: Tariqa Khalwatiyya wa Naqshbandiyya. – Leiden Cod. Or. 7337.

²⁸ Qo‘lyozma: Nyai Mak Tangu. Silsila Shattariyya. – Leiden Cod. Or. 7327. – 16 b.

ikkinchisi, Ibrohim Samarqandiy asos solgan pesantren maktabi Nusantara islom sivilizatsiyasini barpo etishda muhim rol o'ynagan. Pesantrenda ta'lim olish uchun jalb qilinganlar bu maktablarda yashab ilm olgan²⁹. Pesantrenlarni Raden Rahmat keng miqyosda rivojlantiradi. Uning qo'l ostida yetishib chiqqan ulamolarning islom tarqalishiga qo'shgan hissasi Indoneziya tarixida o'chmas iz qoldirgan;

uchinchisi, madaniyatni rivojlantirish orqali islomni targ'ib qilish. Sunan Bonang an'anaviy Yava qo'shiqlarini o'zgartirib, ularni islomiy ma'no bilan boyitgan, gamelanda³⁰ islomni o'rganish vositasi sifatida foydalangan. Uning ibodat orqali ruhiy xotirjamlikka erishish haqidagi "Qalb shifosi" (Tombo ati) an'anaviy yava qo'shig'i pesantrenlarda o'qitiladi va Indoneziyada o'tkaziluvchi islomiy qo'shiqlar tanlovining shartlaridan hisoblanadi. Sunan Kudus esa "Soyalar o'yini" (Wayang golek) qo'g'irchoq teatriga asos solgan;

to'rtinchisi, kundalik ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar bilan bog'liq masalalar orqali islomni targ'ib qilish. Iqtisodiy sohada vazir etib tayinlangan Sunan Majagung oziq-ovqat, qishloq-xo'jaligi va boshqa bir qancha sohalar bo'yicha halol hamda harom masalalarini yoritib bergan. Sunan Kaliyaga esa qishloq xo'jaligi rivojiga bag'ishlangan "Qo'sh va shudgor falsafasi" (Filsafat bajak dan cangkul)³¹ nomli kitob yozgan.

Dissertatsiyaning "**Samarqandlik olimlar faoliyatining Indoneziyada islom dini tarqalishidagi ahamiyati**" deb nomlangan uchinchi bobning birinchi bandi "*Indoneziyadagi samarqandlik olimlar faoliyati*" tarixiga bag'ishlanib, unda samarqandlik olimlar hayoti, avlodlari va ularning mintaqadagi islom rivojiga qo'shgan hissasi o'rganilgan. Arxipelagda faoliyat yuritgan samarqandliklar oilasi Jumadil Kubro va uning ikki o'g'li Malik Ibrohim Samarqandiy hamda Mavlono Ishoq bilan boshlanadi.

Jumadil Kubro Yava oroliga ikki o'g'li bilan keladi. Katta o'g'li Ibrohim Samarqandiy Vyetnam janubidagi Champa mintaqasiga, ikkinchi o'g'li Mavlono Ishoq Aceh hududlariga islomni targ'ib qilish maqsadida jo'nab ketadi. Ibrohim Samarqandiy Sayid Ali Murtazo (vaf. 1449-y.) va Sayid Ali Rahmatulloh (1401-1481) ismli ikki o'g'il ko'rgan. Ali Murtazo Nusa Tenggara, Madura, Bima kabi mintaqalarda islomni targ'ib qilgan. Uning Usmon Xoji (vaf. 1524-y.), Nyai Gede Tundo hamda Ali Musaytar ismli farzandlari bo'lib, ular ham din peshvolari bo'lib yetishadi.

Samarqandiyning 1401-yilda tug'ilgan o'g'li Ali Rahmatulloh xalq orasida Raden Rahmat va Sunan Ampel nomlari bilan tanilgan³². U Surabayadagi Ampel Dentada maktab tashkil qilgan. Ushbu maktabda Malay orollarida islom

²⁹ Hasanu Simon. Misteri Syeh Siti Jenar. – Yogyakarta: Pustaka Pelajar, 2004. – H. 131.

³⁰ Gamelan-Indoneziyaning yava, sundan va baliy xalqlarining an'anaviy ansambil musiqasi bo'lib, u, asosan, zarbli cholg'u asboblardan tashkil topgan.

³¹ Sofwan R., Wasit H., and Mundiri H. Islamisasi di Jawa: Walisongo, Penyebar Islam Di Jawa, Menurut Penuturan Babad. – Yogyakarta: Pustaka Pelajar, 2004. – P. 112.

³² Thomas W. Arnold. The preaching of Islam: A history of the propagation of the muslim faith. – London: Constable, 1977. – P. 232.

